QASHQADARYO VILOYATI
YAKKABOG‘ TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

181400 Yakkabog‘ shahri, A.Temur ko‘chasi, 74-uy, Faks:(+99875) 58-25-420 t.yakkabog@exat.uz

2022 - yil 8 - iyul 296-4-68-Q/22 Yakkabog‘ tuman hokimligi

“Yakkabog‘ tuman hokimining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy tusdagi ayrim qarorlarini bekor qilish to‘g‘risida”

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘z ahamiyatini yo‘qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 27-sentabrdagi PF–6075-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QARORQILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentabrdagi PF–6075-son Farmonida qadar mahalliy davlat hokimiyati organlarining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy hujjatlarini bekor qilish choralarini ko‘rish belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Yakkabog‘ tuman hokimi tomonidan qabul qilingan eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlar ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Axborot xizmati (B.Azizov) mazkur qarorning rasmiy e’lon qilinishini va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror rasman e’lon qilingandan keyin kuchga kirishi belgilansin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimning birinchi o‘rinbosari B.Islomov zimmasiga yuklatilsin.

Yakkabog` tuman hokimi **L.J.ABDULLAYEV**

Yakkabog‘ tuman hokimining
2022 yil 8 iyuldagi
296-4-68-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Yakkabog‘ tuman hokimining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlari

RO‘YXATI.

1.Yakkabog‘ tuman hokimining 30-avgust 2019-yildagi “Yakkabog‘ tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumiyta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘rsida”gi X-5199/08-sonli qarori